

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.B.Nuriddinova	
Linguistic feature of english riddles	129
S.S.Qozaqova	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	139
N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	143
G.Sh.Ergasheva	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
M.A.Abduqodirova	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
M.A.Sayidova	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
A.X.Шукрова	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд	163
M.N.Xamdamova	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
K.T.Sindorov	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari	176
Х.С.Шукрова	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ	180
Г.Р.Ташматова	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции	187
N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis	193
N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies	197
I.I.Po'latova	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi	205
O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
K.A.Abdurashidova	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
D.Y.Kambarova	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era	222
G.T.Khaitova	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili	229
M.O.Batirkhanova	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
J.A.Egamnazarov	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
K.T.Israilova	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi	242
M.M.Botirova, Z.G.Qodirova	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
F.K.Aminov	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies	250
Z.M.Sobirova	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



UO'K: 373.5

**BOLALAR BOG'CHASIDA NUTQIY O'YINLAR YORDAMIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ С ПОМОЩЬЮ РЕЧЕВЫХ ИГР В ДЕТСКОМ
САДУ**

DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS THROUGH SPEECH GAMES IN KINDERGARTENS

Xudayberanova Nodira Baltabayevna¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti talabasi

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna² 

²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlanishiga masalasi ko'rib chiqilgan. Nutqiy o'yinlarning ahamiyati, ularning turlari va bolalar nutqini rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'ssatadiki, o'yinlar bolaning so'z boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье речь идет о развитии коммуникативных навыков посредством речевых игр в детском саду. Анализируется значение речевых игр, их виды и роль в развитии речи детей. Результаты исследования показывают, что игры служат увеличению словарного запаса ребенка, формированию навыков мышления и развитию коммуникативной компетентности.

Abstract

This article examines the issue of developing communication skills through speech games in kindergarten. The importance of speech games, their types and their role in the development of children's speech are analyzed. The results of the study show that games serve to increase the child's vocabulary, form thinking skills and develop communicative competence.

Kalit so'zlar: Nutqiy o'yinlar, muloqot ko'nikmalar, bog'cha, ta'lif, pedagogika, bola rivojlanishi, innovatsion metodlar, lingvistik qobiliyat, interaktiv yondashuv, kommunikativ kompetensiya

Ключевые слова: Речевые игры, коммуникативные навыки, детский сад, образование, педагогика, развитие ребенка, инновационные методы, языковая способность, интерактивный подход, коммуникативная компетентность

Key words: Speech games, communication skills, kindergarten, education, pedagogy, child development, innovative methods, linguistic abilities, interactive approach, communicative competence.

KIRISH

Bolalar bog'chasida ta'lif jarayoni bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning intellektual, hissiy, ijtimoiy va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, ayniqsa, og'zaki nutqni rivojlanish, atrof-muhit bilan faol muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Til va nutq inson tafakkurining asosiy ifodasi bo'lib, bola hayotining ilk bosqichlaridan oq uning bilish faoliyati, fikrlash jarayoni va ijtimoiy moslashuvi nutq rivojiga chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu sababli, bolalar bog'chasi ta'lif dasturida nutqiy o'yinlardan keng foydalanish bolaning kelajakdagi ta'limi va shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Nutqiy o'yinlar bolaning og'zaki nutqini rivojlanish, lug'at boyligini kengaytirish, to'g'ri talaffuzni shakllantirish, jumla tuzish qobiliyatini rivojlanish hamda ijtimoiy muhitga moslashishida samarali vosita hisoblanadi. Bunday o'yinlar orqali bolalar so'z va iboralarni mustahkamlabgina

qolmay, balki o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalashni ham o'rganadilar. Shuningdek, nutqiy o'yinlar bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, tafakkurini faollashtirish, ijodkorligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, G'. Yo'idosheva, S. To'raqulova, N. Mamatova, M. Yusupova, O. Sodiqova, A. Qayumova kabi tadqiqotchilarning ishlarda bolalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, nutqiy o'yinlarning o'rni va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Nutqiy o'yinlar bolalar bog'chasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. O'yinlar yordamida bola nutqining mantiqiy tuzilishi mustahkamlanadi, so'z boyligi kengayadi hamda muloqot jarayonida o'z fikrini aniq ifodalashga o'rganadi. Ushbu metodning samaradorligi quyidagi ilmiy ishlarda keng yoritilgan:

S. To'raqulova, "Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarda nutq rivojlantirish usullari" nomli asarida ushbu asarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan innovatsion o'yin texnologiyalari va ularning samaradorligi tahlil qilingan.

N. Mamatova, "Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli" – Mazkur ishda didaktik o'yinlarning bolalar muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati va qo'llash metodikasi keltirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, nutqiy o'yinlar bolalar bog'chasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod bolalar o'tasida o'zaro muloqotni faollashtiradi, ularning so'z boyligini kengaytiradi va nutqiy faoliytni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, doimiy ravishda nutqiy o'yinlardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- bolalar og'zaki nutq bilan yanada faol shug'ullanishadi, jumlalarni mantiqiy shakllantirish malakalari rivojlanadi;
- yangi so'zlar va iboralarni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi;
- ijtimoiy muhit bilan muloqot qilish qobiliyati ortadi, bolalar o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rganishadi;
- ta'lif jarayonida ishtirok etish faollashadi va o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishi oshadi;

Muhokama natijalaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lif muassasalarida nutqiy o'yinlar ko'proq qo'llanishi lozim. Shuningdek, pedagoglar tomonidan o'yinlarning samaradorligini oshirish uchun interaktiv usullar bilan birlashtirish tavsiya etiladi. O'yin usullarini takomillashtirish orqali bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi aniqlandi.

Nutqiy o'yinlarning yana bir muhim jihat shundaki, ular bolalarning qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Bunday o'yinlar orqali bolalar nutqiy faoliyat bilan shug'ullanishi majburiyat emas, balki zavqli jarayon sifatida qabul qilishadi. Ta'lif berishda o'yin elementlaridan foydalanish bolalarni yanada faolroq ishtirok etishga undaydi, ularning muloqotga bo'lgan ishonchini oshiradi va yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Shuning uchun bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlardan samarali foydalanish tarbiyachi va pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu bolalarning nafaqat til qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularning umumiyligi psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada nutqiy o'yinlarning bolalar rivojlanishidagi o'rni, ularning samaradorligi, ta'lif jarayoniga ta'siri hamda ularni tashkil etishning eng samarali usullari haqida batafsil tahlil qilinadi.

Nutqiy o'yinlar ta'rifi va turlari: Nutqiy o'yinlar bolalarning til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlardir. Bu o'yinlar bolalarning so'z boyligini oshirish, grammatik jihatdan to'g'ri gapirish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Nutqiy o'yinlar turli xil bo'lishi mumkin: interaktiv suhbatlar, rolli o'yinlar, tafakkur va tasavvurga asoslangan o'yinlar, ertak asosida hikoya qilish, savol-javob o'yinlari va dramatizatsiya o'yinlari[2].

Bolalar uchun nutqiy o'yinlarning foydali jihatlari: Nutqiy o'yinlar bolalar rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu o'yinlar, avvalo, bola nutqining ravonligini oshirishga, so'z boyligini kengaytirishga va aniq talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bola o'yin

TILSHUNOSLIK

jarayonida turli so'z va iboralarni o'rganib, ularni to'g'ri qo'llashni mashq qiladi. Natijada, uning nutqi yanada boyib boradi va atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga o'rganadi.

Nutqiy o'yinlar bolaning ijtimoiy muhitga moslashishiga ham yordam beradi. Guruh bo'lib o'ynaladigan bunday o'yinlar orqali bola jamoadagi o'rnnini his qiladi, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalashni o'rganadi hamda boshqa bolalar bilan muloqot qilish malakasini rivojlantiradi. Bu esa keyinchalik uning ijtimoiy hayotga moslashishi va o'z fikrlarini dadil ifodalashi uchun muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, nutqiy o'yinlar bolaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, turli savol-javob o'yinlari, hikoya to'qish mashqlari yoki izoh berish talab qilinadigan o'yinlar bola tafakkurini o'stiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bunday o'yinlar bolaning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi, chunki ular tasavvurini ishga solishga, yangi g'oyalar yaratishga va hikoyalarni to'qishga undaydi.

Yoshi va rivojlanish darajasiga mos o'yinlarni tanlash: Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlarni tashkil qilishda bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga e'tibor berish muhim. Masalan, 3-4 yoshli bolalar uchun sodda savol-javob o'yinlari, she'r o'qish va qisqa hikoyalarni qayta hikoya qilish foydali bo'lsa, 5-6 yoshli bolalar uchun murakkabroq rolli o'yinlar va ijodiy hikoya tuzish mashg'ulotlari samarali bo'ladi.

Interaktiv yondashuv bolalarning o'zaro muloqot qilishiga, bir-biriga javob berishiga va jamoaviy fikrlashiga yordam beradi. O'yin jarayonida bola faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi lozim. Masalan, "Ertakni davom ettir" o'yini bolalarning tasavvurini rivojlantiradi va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, teatr o'yinlari va rolli o'yinlar orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda qilishni o'rganadilar.

Nutqiy o'yinlar og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Savolga javob ber" yoki "Bir so'zdan hikoya tuz" kabi o'yinlar bolalarni to'g'ri va mantiqiy gapirishga undaydi. Bu o'yinlar natijasida bolalar aniq va ifodali gapirishni o'rganadilar.

Nutqiy o'yinlar bolalarni jamiyatga moslashishiga ham yordam beradi. O'yin davomida bola tengdoshlari bilan muloqot qiladi, o'z fikrini ifoda qilishga o'rganadi va o'zini erkin his qiladi. Masalan, "Do'stlik nima?" mavzusida bahs-munozara o'tkazish bolalarni ijtimoiy muloqotga tayyorlaydi va ularga o'z fikrlarini aniq bayon qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda bolalar bog'chalarida nutqiy o'yinlardan keng foydalilanadi. Masalan, "O'zbek xalq ertaklarini hikoya qilish" yoki "Rolli ertak teatrлari" kabi usullar bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Xalqaro tajribada esa Montessori usuli asosida "Hikoya yarat" o'yinlari, interaktiv qo'g'irchoq teatrлari va muloqotga asoslangan didaktik o'yinlar muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy o'yinlarni doimiy ravishda qo'llash bolalarning so'z boyligini 30-40% ga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bunday o'yinlar bola nutqining aniq va ravon bo'lismiga, shuningdek, muloqotga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, ijtimoiy tajribalarga ko'ra, nutqiy o'yinlarni o'rgangan bolalar maktabgacha ta'lif bosqichida ancha yuqori natjalarga erishadilar.

Umuman olganda, nutqiy o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat bolalarning so'z boyligini kengaytiradi, balki ularning muloqot ko'nikmalarini mustahkamlab, ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi. Shuning uchun ham bog'cha va maktabgacha ta'lif muassasalarida bunday o'yinlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Nutqiy o'yinlar bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu o'yinlar nafaqat ularning so'z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki fikrlash qobiliyatini shakllantirish, hissiy ifoda qilish hamda o'z fikrlarini ravon etkazishga yordam beradi. Shuningdek, nutqiy o'yinlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobji ta'sir ko'rsatib, ularning jamiyat bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning o'z fikrini erkin ifoda eta olishiga, jamoaviy ishishga ko'nikmalarini shakllantirishiga va mustaqil fikrlashiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lif jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish bolalarning nutqiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali bolaning nutqiy faolligini

oshirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va ularning bilim olish jarayonini qiziqarli hamda samarali tashkil qilish mumkin. Shu bois, o'qituvchilar va pedagoglar nutqiy o'yinlarni ta'lif jarayoniga faol joriy etishlari lozim, chunki ular bolalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirib, og'zaki va yozma nutqini takomillashtiradi.

Shu bilan birga, bunday o'yinlarning qo'llanilishi bolalarning kreativ fikrlashiga, jamoada ishlash qobiliyatiga va nutqiy faolligiga sezilarli ta'sir qiladi. Shuning uchun ham nutqiy o'yinlarni o'quv jarayoniga singdirish bolalar uchun nafaqat o'yin-kulgi, balki samarali o'rganish usuli hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vygotskiy L.S. "Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqi rivojlanishi"
2. Jalolov J.J. "Pedagogik texnologiyalar"
3. Akramova M. "Bolalar nutqini shakllantirish metodikasi"
4. Hasanboev J. "Maktabgacha ta'lif pedagogikasi"
5. Raxmonov A. "Bog'cha pedagogikasi"
6. Qosimov U. "Nutq madaniyati va kommunikatsiya"
7. Muxamedova N. "Psixolingvistika asoslari"
8. Rogov E.I. "Kommunikativ kompetensiya rivojlantirish usullari"